



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS:3 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	TOVARLAR AUDITI NATIJALARINI AUDITORLIK HISOBOTIDA AKS ETTIRISH TARTIBI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Qurbonov Muhammadali Bahodirovich</i>	4
2.	O'ZBEKISTONDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shirinova Obida Toshpulatovna</i>	8
3.	ORGANIZATION OF AN AUDIT OF THE MOVEMENT OF FIXED ASSETS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS REQUIREMENTS <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna</i>	12
4.	QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Qo'chqorov Muslimbek Bobojon o'g'li</i>	16
5.	SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARI AUDITINING TASHKILIY TA'MINOTI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Tursunboyev Sarvar Shuxrat o'g'li</i>	19
6.	SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich</i>	24
7.	TURIZM KORXONALARIDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH <i>Ibragimov Mansur Mardonovich</i>	27
8.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOB VA NAZORATINING INNOVATSION MEXANIZMLARI <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Davronov Miraziz Baxtiyor o'g'li</i>	30
9.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	33
10.	MEHNAT HAQI HISOB VA AUDITINING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Yusupov Shavkar Xushvaqt o'g'li</i>	37
11.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOB VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Akmalov Ilg'or Nazirovich</i>	41
12.	XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALARDA XARAJATLAR HISOB VA KALKULYATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Toshbekov Firdavs Abdurauf o'g'li</i>	44
13.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	47
14.	ASOSIY VOSITALARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASH VA BAHOLASHNI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shakarov Shahzod Sobir o'g'li</i>	52
15.	XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDIT VA QARZ MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH HISOBINI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Mahmudova Go'zal Samadjon qizi</i>	56
16.	IQTISODIY O'SISH BARQARORLIGINI TA'MINLOVCHI OMILLAR. (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) <i>Xolbekov Shoxsuvor Ochilovich</i>	61
17.	ФОРМИРОВАНИЕ РЫНКА ВТОРИЧНЫХ РЕСУРСОВ КАК ОСНОВА РЕСУРСОСБЕРЕГАЮЩЕЙ МОДЕЛИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ <i>Ким Татьяна Валерьевна</i>	65
18.	ОПЫТ ЮЖНОЙ КОРЕИ ПО ВНЕДРЕНИЮ СИСТЕМЫ КОРЕЙСКОГО ФОНДА КРЕДИТНЫХ ГАРАНТИЙ <i>Рахманов Бекзод Ибрагимович</i>	70

19	TRANSPORT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	74
20	RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR SUG'URTA SEKTORIDA BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI VA ULARNI MILLIY SUG'URTA TIZIMIGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI <i>Yakubova Nargiz Tursunbayevna</i>	76
21	НАПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ БАНКОВСКОГО СТРАХОВАНИЯ В СТРАХОВОЙ ПРАКТИКЕ УЗБЕКИСТАНА <i>Закирходжаева Ширин Акмаловна</i>	80
22	THE PLACE AND IMPORTANCE OF THE LOGISTICS INDUSTRY IN THE NATIONAL ECONOMY <i>Matiyazova Sanobar Rajabbayovna</i>	84
23	O'ZBEKISTONDA ISLOMIY BANKLAR INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI <i>Mirzasalimova Ozoda To'lqin qizi</i>	88
24	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI <i>Baratova Dinora Alisherovna</i>	90
25	IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA XIZMAT KO'RSATISH JARAYONLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI <i>Ilhom Safarboyevich Shukurov</i>	92
26	GLOBALASHUV SHAROITIDA TEXNOLOGIK PIVOJLANISH QONUNIYATLARI <i>Mamatova Fotima Abdusalomovna</i>	96
27	NOMODDIY AKTIVLARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDAGI TASNIFI VA TAVSIFINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Abdug'ofurov Og'abek Tolib o'g'li</i>	99
28	MINTAQADA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI <i>Muxiddinov Tal'at Shaydullo o'g'li</i>	103
29	MAMLAKATIMIZDA JORIY ETILAYOTGAN "XAVFSIZ SHAHAR" LOYIHASINING ASOSIY VAZIFALARI TAHLILI <i>Iminov Akbarjon Odiljon o'g'li</i>	106
30	O'ZBEKISTONDA PENSIYA SUG'URTASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI <i>Yoldoshova Aziza Muzaffar qizi</i>	110
31	SUG'URTA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR AUDITINI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Urozoov Komil Bahromovich, Sharifov Davlatjon Nosirovich</i>	113
32	SUG'URTA TASHKILOTLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINING IQTISODIY MOHIYATI VA OMILLARI <i>Xolbayev Azamat Yuldashovich</i>	117
33	SUG'URTA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR HISOBI VA AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Urozoov Komil Bahromovich</i>	122

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



SUG'URTA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR HISOBI VA AUDITNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

UrozoV Komil Bahromovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti iqtisod fanlari doktori, professor
Email: urunovkomil@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlarda daromadlarning iqtisodiy mazmuni, ularning shakllanish manbalari, buxgalteriya hisobida tan olinishi va auditorlik tekshiruvlarida baholanishiga oid nazariy-uslubiy masalalar tadqiq etilgan. Sug'urta faoliyatida daromad oddiy tushum emas, balki kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sug'urta majburiyatlari, sug'urta zaxiralari, qayta sug'urtalash munosabatlari va investitsion faoliyat natijalari bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab iqtisodiy ko'rsatkich sifatida izohlanadi.

Kalit so'zlar: sug'urta xizmatlari, daromadlar hisobi, sug'urta mukofoti, qayta sug'urtalash, investitsion daromad, auditorlik dalillari, axborot manbalari, moliyaviy hisobot, ichki nazorat, sug'urta zaxiralari.

Abstract: The article examines theoretical and methodological issues related to the economic content of income in entities providing insurance services, its sources of formation, recognition in accounting and assessment in audit audits. Income in insurance activities is interpreted not as a simple income, but as a complex economic indicator that is inextricably linked to insurance obligations, insurance reserves, reinsurance relations and the results of investment activities that may arise in the future.

Keywords: insurance services, revenue accounting, insurance premium, reinsurance, investment income, audit evidence, financial reporting, internal control.

Абстрактный: В статье рассматриваются теоретические и методологические вопросы, связанные с экономическим содержанием дохода в организациях, предоставляющих страховые услуги, его источниками формирования, признанием в бухгалтерском учете и оценкой в аудиторских проверках. Доход в страховой деятельности рассматривается не как простой доход, а как комплексный экономический показатель, неразрывно связанный со страховыми обязательствами, страховыми резервами, отношениями по перестрахованию и результатами инвестиционной деятельности, которые могут возникнуть в будущем.

Ключевые слова: страховые услуги, учет доходов, страховая премия, перестрахование, инвестиционный доход, аудиторские доказательства, финансовая отчетность, внутренний контроль.

Kirish (Введение/Introduction).

Mamlakat iqtisodiyotida sug'urta bozori moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi, xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholining mulkiy manfaatlarini himoya qiluvchi muhim infratuzilma bo'g'ini hisoblanadi. Sug'urta tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar korxonalar faoliyatida kutilmagan risklarni kamaytirish, investitsiya resurslarini jamlash va iqtisodiy munosabatlarda ishonch muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli sug'urta tashkilotlarida daromadlarni to'g'ri hisobga olish va ularni auditorlik tekshiruvlarida xolis baholash masalasi bugungi kunda alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Sug'urta faoliyatida daromadlar boshqa tarmoq korxonalaridagi daromadlarga nisbatan murakkabroq iqtisodiy mazmunga ega. Chunki sug'urta mukofotining kelib tushishi tashkilot foydasining darhol shakllanganligini anglatmaydi. Ushbu mablag'lar sug'urta himoyasi davri, sug'urta hodisasi yuz berish ehtimoli, zaxiralari shakllanishi va qayta sug'urtalash munosabatlari bilan bog'liq holda baholanadi. Demak, sug'urta tashkilotida daromadlarni hisobga olishda nafaqat pul tushumi, balki xizmat ko'rsatish davri, risk darajasi, majburiyatlar hajmi va moliyaviy hisobotning haqqoniyligi ham e'tiborga olinishi zarur.

Amaliyotda sug'urta tashkilotlari daromadlarini tan olishda bir qator muammolar uchraydi. Jumladan, sug'urta mukofotlarini hisobot davrlari bo'yicha to'g'ri taqsimlanmaslik, qayta sug'urtalash operatsiyalarini alohida hisobga olmaslik, investitsion daromadlarni asosiy sug'urta daromadlari bilan aralashtirib yuborish, ichki nazorat hujjatlarini yetarli darajada yuritmaslik va auditorlik dalillarini to'liq shakllantirmaslik holatlari moliyaviy hisobotlarning ishonchligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mazkur maqolaning maqsadi sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlarda daromadlar hisobi va auditning nazariy-uslubiy asoslarini tadqiq etish, daromadlarning shakllanish manbalarini tizimlashtirish

hamda audit jarayonida foydalaniladigan axborot manbalarining ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun sug'urta daromadlarining iqtisodiy mohiyati, tasnifi, buxgalteriya hisobidagi o'rni va auditorlik tekshiruvlaridagi nazorat yo'nalishlari tahlil qilindi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Adabiyotlar sharhi. Sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlarda daromadlar hisobi va auditini tashkil etish masalalari moliyaviy hisobotlarning ishonchligini ta'minlash, sug'urta bozori barqarorligini oshirish hamda manfaatdor tomonlarning axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirishda muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda daromadlarni tan olish, baholash va audit qilishning nazariy-uslubiy jihatlarini keng yoritilmoqda.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining rivojlanishi sug'urta kompaniyalarida daromadlar hisobini yuritish metodologiyasini tubdan takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirdi. Xususan, IFRS 17 standarti sug'urta shartnomalaridan olinadigan daromadlarni tan olish va aks ettirish bo'yicha yangi yondashuvlarni belgilab bergan bo'lib, u moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va taqqoslanuvchanligini oshirishga xizmat qilmoqda [1].

Moliyaviy hisobotlarda daromadlarni tan olish tamoyillariga bag'ishlangan tadqiqotlarda sug'urta tashkilotlarida daromadlarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari, sug'urta mukofotlari, qayta sug'urtalash operatsiyalari va investitsion daromadlarning hisobda aks ettirilishi masalalari batafsil tahlil qilingan [2]. Mualliflarning fikricha, daromadlarni to'g'ri tasniflash va baholash moliyaviy natijalarni haqqoniy aks ettirishning asosiy shartlaridan biridir.

Audit nazariyasi rivojlanishiga oid zamonaviy ilmiy ishlarda auditorlik tekshiruvlarining riskga asoslangan modeli keng qo'llanilayotgani qayd etilgan [3]. Ushbu yondashuv sug'urta

kompaniyalarida daromadlar bilan bog'liq xatoliklar va firibgarlik xavfini aniqlash imkoniyatlarini kengaytiradi hamda audit sifatini oshiradi.

Sug'urta kompaniyalarida ichki nazorat va ichki audit tizimlarining samaradorligini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda korporativ boshqaruvning rivojlanishi va moliyaviy intizomni mustahkamlashda ushbu tizimlarning o'zaro alohida ta'kidlangan [4]. Ichki audit xizmatining samarali faoliyati daromadlar hisobining to'g'riligini nazorat qilish va tashqi audit xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Raqamli transformatsiya sharoitida buxgalteriya hisobi va audit jarayonlarini avtomatlashtirish masalalari ham dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy tadqiqotlarda sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data) va ma'lumotlar analitikasi texnologiyalaridan foydalanish auditorlik tekshiruvlarining aniqligi hamda tezkorligini oshirishi asoslab berilgan [5].

Sug'urta bozori ishtirokchilarining moliyaviy barqarorligini baholash bo'yicha ilmiy ishlarda daromadlar hisobi sifati va audit natijalari sug'urta kompaniyalarining investitsion jozibadorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etilgan [6]. Bu esa auditorlik faoliyatining strategik ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

O'zbekiston sug'urta bozorida hisob va audit tizimini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlarda milliy amaliyotni xalqaro standartlarga moslashtirish, auditorlik xizmatlari sifatini oshirish va raqamli audit texnologiyalarini joriy etish zarurligi ko'rsatib o'tilgan [7]. Mualliflar milliy sug'urta tashkilotlarida audit metodologiyasini takomillashtirish bozorning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydilar.

Barqaror rivojlanish va ESG hisobotlari bilan bog'liq tadqiqotlarda sug'urta kompaniyalarining moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlarini integratsiyalashgan holda audit qilish masalalari o'rganilgan [8]. Ushbu yondashuv auditorlik faoliyatining ko'lamini kengaytirib, manfaatdor tomonlarga yanada to'liq axborot taqdim etish imkonini beradi.

So'nggi ilmiy manbalarda uzluksiz audit (continuous auditing) va real vaqt rejimidagi nazorat tizimlarini qo'llash orqali sug'urta kompaniyalarida daromadlar hisobi ustidan monitoring samaradorligini oshirish mumkinligi qayd etilgan [9]. Bu esa moliyaviy hisobotlarning ishonchligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlarda daromadlar hisobi va auditning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish uchun xalqaro standartlarni joriy etish, riskga asoslangan audit metodologiyasini rivojlantirish, ichki nazorat tizimlarini kuchaytirish hamda raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan keng foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы /Methods).

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, guruhlash, taqqoslash, iqtisodiy tahlil, hujjatlarni o'rganish hamda buxgalteriya hisobining metodik yondashuvlaridan foydalanildi. Sug'urta tashkilotlarida daromadlarning shakllanishi nazariy jihatdan o'rganilib, ularning amaliy hisob va audit jarayonidagi ahamiyati umumlashtirildi.

Maqolada daromadlarni tizimlashtirishda uchta mezon asos qilib olindi: birinchidan, daromadning shakllanish manbai; ikkinchidan, daromadning hisobot davriga mansubligi; uchinchidan, auditorlik tekshiruvlarida ushbu daromadni tasdiqlovchi axborot manbalari. Bunday yondashuv sug'urta tashkilotlarida daromadlarning to'liqligi, haqqoniyligi va davriyligini baholash imkonini beradi.

Tadqiqotning axborot bazasini buxgalteriya hisobi va auditga oid ilmiy adabiyotlar, sug'urta faoliyatiga doir nazariy manbalar, moliyaviy hisobotga oid metodik yondashuvlar hamda sug'urta tashkilotlarida daromadlar hisobi va auditga oid amaliy kuzatuvlar tashkil etdi.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results).

Sug'urta tashkilotlarida daromadlar bir nechta iqtisodiy manbalar hisobidan shakllanadi. Ularning eng asosiy manbai sug'urta mukofotlari hisoblanadi. Sug'urta mukofoti sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urta himoyasi uchun to'lanadigan badal bo'lib, u sug'urta tashkilotining asosiy operatsion daromad manbaini tashkil qiladi. Biroq ushbu daromad sug'urta shartnomasi amal qiladigan davr, shartnomaviy majburiyatlar va sug'urta hodisasi yuz berish ehtimoli bilan bog'liq holda tan olinishi lozim.

Sug'urta daromadlarining ikkinchi muhim manbai qayta sug'urtalash operatsiyalari bilan bog'liq. Qayta sug'urtalash yirik risklarni taqsimlash, sug'urtalovchining moliyaviy barqarorligini saqlash va zararlarni cheklash imkonini beradi. Ushbu jarayonda qayta sug'urta mukofotlari, komission mukofotlar, tantyemalar va qayta sug'urtalovchilardan olinadigan boshqa tushumlar yuzaga keladi. Ularni hisobda alohida aks

ettirish sug'urta tashkilotining real daromadlilik darajasini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Sug'urta tashkilotlari daromadlarida investitsion tushumlar ham alohida o'rin egallaydi. Sug'urta mukofotlari va zaxiralarning ma'lum qismi sug'urta hodisasi yuz bergunga qadar tashkilot ixtiyorida bo'ladi. Ushbu mablag'larni qonunchilik va ichki investitsiya siyosati doirasida depozitlar, qimmatli qog'ozlar yoki boshqa moliyaviy instrumentlarga joylashtirish orqali foiz, dividend va boshqa moliyaviy daromadlar olinishi mumkin. Biroq investitsion daromadlar sug'urta xizmatlaridan olingan asosiy daromadlar bilan aralashtirilmagan, moliyaviy natijalar hisobotida alohida tahlil qilinishi zarur.

Sug'urta daromadlarining muhim xususiyati shundaki, ular doimo sug'urta majburiyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Korxonada daromad olgan paytda kelgusida sug'urta tovonini to'lash ehtimolini ham o'z zimmasiga oladi. Shu sababli daromadlar tahlilida faqat tushum hajmiga emas, balki sug'urta portfeli sifati, risklar tarkibi, zaxiralarning yetarlicligi, qayta sug'urtalash mexanizmi va zarar ko'rish darajasiga ham e'tibor qaratish lozim.

1-jadval

Sug'urta xizmatlari daromadlarining asosiy manbalari va ularning hisobdagi mazmuni¹

№	Daromad manbai	Iqtisodiy mazmuni	Hisob va auditdagi ahamiyati
1	Sug'urta mukofotlari	Sug'urtalanuvchining sug'urta himoyasi uchun to'laydigan badali.	Shartnoma, polis, to'lov jadvali va bank hujjatlari orqali tasdiqlanadi.
2	Qayta sug'urtalash daromadlari	Risklarni boshqa sug'urtalovchilar bilan taqsimlash natijasida yuzaga keladigan tushumlar.	Qayta sug'urta shartnomalari, bordro va komission hisob-kitoblar bilan tekshiriladi.
3	Investitsion daromadlar	Vaqtincha bo'sh mablag'larni moliyaviy instrumentlarga joylashtirishdan olinadigan foiz va dividendlar.	Depozit shartnomalari, qimmatli qog'ozlar hujjatlari va bank ma'lumotlari asosida baholanadi.
4	Boshqa operatsion daromadlar	Jarima, penya, aktivlarni sotishdan foyda, operativ ijaradan tushum va boshqa daromadlar.	Tegishli birlamchi hujjatlar va buxgalteriya registrlari bilan asoslanadi.

Jadvaldan ko'rinadiki, sug'urta tashkilotlarida daromadlar birgina sug'urta mukofotlari hisobidan shakllanmaydi. Har bir daromad turi o'zining hujjatli asosiga, hisobda aks ettirish tartibiga va auditda tekshirish yo'nalishiga ega. Shuning uchun auditorlik tekshiruvlarida daromadlarning faqat umumiy summasini emas, balki ularning manbalari bo'yicha tarkibini ham baholash zarur.

Sug'urta xizmatlari daromadlarini tan olishda davriylik tamoyili muhim ahamiyatga ega. Agar sug'urta shartnomasi bir necha oy yoki bir yil davomida amal qilsa, oldindan olingan mukofotning hammasi bir vaqtning o'zida daromad sifatida tan olinmasligi kerak. Sug'urta himoyasi qaysi davrga tegishli bo'lsa, daromad ham shu davrga mos ravishda hisobga olinadi. Mazkur yondashuv daromad va majburiyatlarining o'zaro muvofiqligini ta'minlaydi.

Daromadlarni noto'g'ri davrda tan olish sug'urta tashkilotining moliyaviy natijasini sun'iy ravishda oshirib yoki kamaytirib ko'rsatishi mumkin. Masalan, kelgusi davrlarga tegishli mukofotlar to'liq joriy davr daromadi sifatida aks ettirilsa, hisobot davridagi foyda ortiqcha ko'rsatiladi. Aksincha, haqiqatda ishlab topilgan daromadlarni keyingi davrlarga o'tkazish esa tashkilot faoliyatining real natijasini pasaytirib ko'rsatadi.

¹ Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

2-jadval

Sug'urta tashkilotlarida daromadlar auditining axborot manbalari²

Axborot manbai	Tekshiriladigan jihat	Kutiladigan auditorlik dalili
Sug'urta shartnomalari va polislar	Sug'urta obyekti, sug'urta summasi, mukofot miqdori, shartnoma muddati.	Daromadning huquqiy asosi va tegishli davrga mansubligi tasdiqlanadi.
Mukofotlar bo'yicha hisob-kitob hujjatlari	Tarif stavkasi, risk darajasi, to'lov jadvali, hisoblangan summa.	Sug'urta mukofoti to'g'ri hisoblanganligi aniqlanadi.
Bank ko'chirmalari va to'lov hujjatlari	Pul mablag'larining haqiqatda kelib tushishi.	Hisoblangan daromad va real tushum o'rtasidagi bog'liqlik baholanadi.
Buxgalteriya registrlari	Schyotlar korrespondensiyasi, analitik hisob, oborot-qoldiq vedomostlari.	Daromadlar tegishli schyotlarda to'g'ri aks ettirilganligi tekshiriladi.
Qayta sug'urta shartnomalari	Risk ulushi, komission mukofotlar, qayta sug'urtalovchilar bilan hisob-kitoblar.	Qayta sug'urtalash daromadlarining asoslanganligi tasdiqlanadi.
Hisob siyosati va ichki nazorat hujjatlari	Daromadlarni tan olish usuli, zaxiralar va hujjatlar aylanishi tartibi.	Amaldagi hisob siyosatiga rioya etilishi baholanadi.

Sug'urta tashkilotlarida daromadlar auditining sifatli tashkil etilishi auditor foydalanadigan axborot manbalarining to'liqligiga bog'liq. Auditor sug'urta shartnomalari, polislar, mukofotlar bo'yicha hisob-kitoblar, bank hujjatlari, buxgalteriya registrlari, qayta sug'urtalash shartnomalari va moliyaviy hisobot shakllarini o'zaro solishtirgan holda xulosa shakllantirishi lozim. Bunday yondashuv daromadlarning mavjudligi, to'liqligi, aniqligi va davriyligini baholash imkonini beradi.

Daromadlar auditida eng muhim auditorlik amallaridan biri hujjatlararo taqqoslashdir. Masalan, sug'urta polisi reyestrda mavjud bo'lgan shartnoma buxgalteriya registrida aks etmagan bo'lsa, bu daromad to'liq hisobga olinmagan bo'lishi mumkin. Aksincha, buxgalteriya hisobida aks ettirilgan daromad sug'urta shartnomasi yoki to'lov hujjati bilan tasdiqlanmasa, bunday daromadning haqqoniyligi shubha ostida qoladi.

Ichki nazorat tizimi daromadlar hisobining ishonchligini ta'minlovchi muhim omildir. Sug'urta tashkilotida shartnomalarni rasmiylashtirish, polislarini ro'yxatdan o'tkazish, mukofotlarni hisoblash, bank tushumlarini nazorat qilish va buxgalteriya yozuvlarini shakllantirish jarayonlari aniq tartibga solingan bo'lishi lozim. Agar ushbu jarayonlar bo'yicha mas'uliyat chegaralari belgilanmagan bo'lsa, daromadlarning noto'g'ri tan olinishi yoki ayrim tushumlarning hisobdan chetda qolishi ehtimoli ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы /References):

- International Accounting Standards Board. IFRS 17 Insurance Contracts: Project Summary and Effects Analysis. London: IFRS Foundation, 2023.
- Kieso D.E., Weygant J.J., Warfield T.D. Intermediate Accounting. 18th Edition. Hoboken: Wiley, 2024.
- Arens A.A., Elder R.J., Beasley M.S. Auditing and Assurance Services: An Integrated Approach. 18th Edition. New York: Pearson, 2024.
- Eulerich M., Lenz R. Internal Audit Effectiveness and Corporate Governance in Financial Institutions // Managerial Auditing Journal. 2023. Vol. 38(7). pp. 845–862.
- Appelbaum D., Kogan A., Vasarhelyi M. Artificial Intelligence and Data Analytics in Modern Auditing // Accounting Horizons. 2024. Vol. 38(1). pp. 25–43.
- OECD. Insurance and Private Pensions Outlook 2024. Paris: OECD Publishing, 2024.
- Xudoyberdiyev A., Rahimov B. O'zbekistonda sug'urta tashkilotlari hisob va audit tizimini modernizatsiya qilish yo'nalishlari // Iqtisodiyot va ta'lim. 2024. №6. 132–140-b.
- PwC. Global Insurance Industry Survey: ESG and Financial Reporting Trends. London: PwC, 2025.
- Deloitte. Future of Insurance Audit: Continuous Auditing and Digital Assurance. Deloitte Insights, 2025.

Auditning yana bir muhim yo'nalishi sug'urta zaxiralari bilan bog'liq. Sug'urta mukofotlari to'liq kelib tushgan bo'lsa ham, sug'urta himoyasi tugamagan davrga tegishli qismi ishlab topilmagan mukofot sifatida baholanishi mumkin. Auditor ushbu zaxiralarning hisob-kitobini shartnoma muddati, mukofot summasi va hisobot sanasiga qadar o'tgan davr asosida tekshirishi zarur. Bu jarayon daromadlarning hisobot davriga to'g'ri taqsimlanganligini aniqlashga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlarda daromadlar hisobi va auditini alohida tarmoq xususiyatlari asosida tashkil etish zarurligini ko'rsatadi. Sug'urta tashkilotining daromadi faqat kelib tushgan pul miqdori bilan emas, balki kelgusidagi majburiyatlar, risklar va zaxiralar bilan ham belgilanadi. Shu bois hisob va audit jarayonida daromadlarning iqtisodiy mazmuni, hujjatli asosi va hisobot davriga mansubligi birgalikda tahlil qilinishi lozim.

Maqolada taklif etilayotgan yondashuvga ko'ra, sug'urta daromadlari auditida to'rtta asosiy nazorat savoliga javob topilishi kerak: birinchidan, daromad haqiqatan mavjudmi; ikkinchidan, barcha daromadlar to'liq hisobga olinganmi; uchinchidan, daromad to'g'ri summada baholanganmi; to'rtinchidan, daromad tegishli hisobot davrida tan olinganmi. Mazkur savollar bo'yicha auditorlik dalillarini shakllantirish moliyaviy hisobotlarning ishonchligini oshiradi.

Sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditning integratsiyalashgan axborot bazasini shakllantirish ham dolzarb masalalardan biridir. Shartnoma reyestrleri, polislar bazasi, bank ma'lumotlari, hisob registrlari va moliyaviy hisobotlar o'rtasida elektron bog'liqlik yaratilsa, daromadlarni tezkor nazorat qilish imkoniyati kengayadi.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

1. Sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlarda daromadlar o'z iqtisodiy mazmuniga ko'ra murakkab ko'rsatkich bo'lib, ular sug'urta mukofotlari, qayta sug'urtalash operatsiyalari, investitsion daromadlar va boshqa operatsion tushumlar orqali shakllanadi.

2. Sug'urta daromadlari doimo sug'urta majburiyatlari va zaxiralar bilan bog'liq bo'lganligi sababli ularni faqat pul tushumi sifatida emas, balki shartnomaviy xizmat davri va risklar bilan bog'liq holda tan olish lozim.

3. Daromadlar auditida sug'urta shartnomalari, polislar, mukofotlar bo'yicha hisob-kitoblar, bank hujjatlari, buxgalteriya registrlari, qayta sug'urta hujjatlari va hisob siyosati o'zaro taqqoslangan holda o'rganilishi zarur.

4. Sug'urta tashkilotlarida daromadlarni tan olish bo'yicha hisob siyosatini aniq belgilash, ishlab topilgan va ishlab topilmagan mukofotlarni alohida hisobga olish, qayta sug'urtalash daromadlarini mustaqil nazorat qilish maqsadga muvofiq.

5. Ichki nazorat tizimida shartnomalarni ro'yxatga olish, polislar harakati, to'lovlar monitoringi va buxgalteriya yozuvlarining o'zaro mosligini tekshirish bo'yicha elektron nazorat mexanizmlarini joriy etish auditorlik risklarini kamaytiradi.

6. Auditorlik tekshiruvlarida daromadlarning mavjudligi, to'liqligi, aniqligi va davriyligi bo'yicha alohida ishchi hujjatlar tuzish, sug'urta zaxiralari bilan bog'liq hisob-kitoblarni mustaqil qayta hisoblash amaliyotini kuchaytirish lozim.

² Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.